SAMARQAND VILOYATI ISHTIXON TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 29 - sentabr 266-7-95-Q/22 Ishtixon tuman hokimligi

Ishtixon tumani hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunning 7- va 20-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-son Qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish, maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ishtixon tumani hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (S.Sharipov) va tuman IIB YHXB boshlig‘i (F.Xamedov)ga tuman hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilishi bilan avtomobil yo‘li bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati ushbu qarorni “Ishtixon ovozi” gazetasida nashr etilishi va hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Tuxtamurodov zimmasiga yuklatilsin.

Ishtixon tumani hokimi **F.K.Ruziyev**